



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

O‘KTAMOV Tohirjon G‘ayrat o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo‘nalishi

2-kurs talabasi

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY – BUYUK ALLOMA

Ko‘hna Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo‘shgan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abul Qosim az- Zamaxshariy ham ana shunday buyuk allomalardan biridir [1, B.125].

Allomaning to‘liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad bo‘lib, hijriy 467-yil, rajab oyining yigirma yettinchisida chorshanba kuni (milodiy 1075-yilning 19-mart) da Xorazmning yirik qishloqlaridan biri Zamaxsharda tavallud topgan va shu boisdan az-Zamaxshariy taxallusini olgan. Hozirda alloma tug‘ilgan qishloq Turkmaniston respublikasining Toshhovuz viloyatidagi Taxta tumanidadir [4].

Mahmud az-Zamaxshariy Makkada yashagan paytida iskandariyalik shogirdi Shihobuddin Ahmad ibn al-Husniy al-Molikiyga yo‘llagan maktubida o‘zi haqida: “Men Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiyman, keyin az-Zamaxshariyman. Xorazmning katta bir qishlog‘i – Zamaxsharga mansubman. Zamaxshar – tug‘ilgan yurtimdir” – deb yozgan. Az-Zamaxshariydek buyuk zotning kindik qoni to‘kilgan Zamaxshar qishlog‘i, allomaning yurti bo‘lganligi tufayli ham, keyinchalik jumlai jahonga dong‘i ketgan qishloqqa aylandi [2, B.149].

Mahmud az-Zamaxshariyning otasi Umar ibn Ahmad o‘qimishli, taqvodor, savodli, diyonatli kishi bo‘lgan, Zamaxshardagi masjidda imomlik ham qilgan. Dastlabki ta‘limni o‘g‘liga o‘zi beradi. Yosh Mahmud yoshligidan ilmga chanqoq bo‘lgan.

U yoshlik chog‘ida yiqilib bir oyog‘idan ajraydi va yog‘och oyoq bilan bir umir yurishga majbur bo‘ladi. O‘sha davr tarixchilari u haqida: “Bir oyog‘i yog‘ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko‘rgan odam uni cho‘loq deb o‘ylardi”, – deb yozadi. Shundan so‘ng otasi Umar ibn Ahmad o‘g‘liga chevarchilik hunarini o‘rgatmoqchi bo‘ladi. Ammo Mahmud buni rad etib, otasidan uni Urganchdagi madrasaga o‘qishga kirgizishini iltimos qiladi. Mahmud Zamaxshariy Urganchda madrasada o‘qib moddiy extiyoji uchun xattotlik bilan ham shug‘ullanadi.

Urganchda Mahmud Zamaxshariy Abumuzar Mahmud ibn Jarir Zabbiy Isfahoniydan dars oladi. Abumuzar Mahmud ibn Jarir Zabbiy Isfahoniy tilshunos olim, mu‘tazil edi. Mahmudning ilmga tirishqoqligini ko‘rib uni o‘ziga shogird qilib oladi. Abumuzar Mahmudning eng sevimli ustoz bo‘lib qoladi. Abumuzar vafot etganida Mahmud unga atab marsiya yozadi [3, B.8].

Az-Zamaxshariy Urganchda ta‘lim olib bo‘lgandan keyin, u Buxoroga boradi. Bu davrda Buxoro ilm toliblarining asosiy shahri edi. As-Saolibiy (961-1037) Buxoroni “Ilm toliblarining ka‘basi, yer yuzidagi adiblar yulduzining matlai va fozillar makoni” deb atagan. Mahmud az- Zamaxshariy bu yerda shayxulislom Abu Mansur Nasr al Xorisiy, Abusa‘d Shakkoniy va Abulxattob ibn Abulbatir singari olimlardan dars oladi [3, B.9].

Buxoroda ta'lim olganidan keyin Zamaxshariy, yana yangi bilimlar qidirib Xurosonga safar qiladi. Isfaxon shahriga borib Saljuqiylar saroyida xizmat qiladi.

Xorazmda hokimiyatga Xorazmshoh-anushteginiylar kelgandan keyin o'lkada ilm-fan, madaniyat sohalari ancha taraqqiy etadi. Ntaijda, alloma Xorazmshoh Muhammad ibn Anushtegin (1097- 1127) davrida o'z yurti Xorazmga qaytadi va uning xizmatida bo'ladi. Xorazmshohlar saroyida kotiblik qiladi.

Zamaxshariy o'zining mashhur "Muqad damotul-al-adab" asarini Muhammad ibn Anushteginning o'g'li Otsiz iltimosi bilan yozadi. Bu asar 5 qismdan iborat edi. Asar 1137- yilda yozib tugallangan [1, B.126].

Mahmud az-Zamaxshariy hijriy 512-yilda (milodiy1118-1119-yillar)qattiq kasal bo'ladi va xorazmshoh saroyidan uzoqlashib, ilmiy ish bilan shug'ullanishni davom ettiradi. Zamaxshariy Bag'dodga borib, u orqali Makkaga yo'l oladi. Makkada ikki yilcha yashagandan keyin yana o'z yurti Xorazmga qaytib keladi.

Zamaxshariy Makkadan qaytib kelganiga qattiq iztirob chekadi. Ona yurtida biroz muddat yashagach yana Makkaga qaytib ketadi. Makkada u o'zining "Al- Kashshof" asarini yozib tugatib, yana o'z yurti Xorazmga qaytib keladi. Mahmud az Zamaxshariy Urganchda hijriy 538 yil zulhijja oyi arafasida (4-iyun 1144-yil) olamdan o'tadi. Shundan deyarli 200 yil o'tib , ya'ni 1333-yil Xorazmga sayohatga kelgan arab sayyohi Ibn Battuta(1304-1377) o'zining "Ar- Rihla" ("Sayohatnoma") asarida Xorazmning tashqarisida az-Zamaxshariyning qubbali maqbarasini ko'rganligi haqida yozadi [3, B.9].

Mahmud az-Zamaxshariy faoliyati davomida arab tilini mukammal o'rganadi. Bunga allomaning jumlai jahonga dong'i ketgan "Muqaddamat al-adab", "Al-Mufassal", "Asos al-balog'a" kabi yirik asarlaridan govoh bo'lishimiz mumkin. Bu asarlar arab tili grammatikasi, leksikasi, umuman arab tilshunosligiga oid asarlardir. Hatto arablarning ham: "Agar xorazmlik shu ko'sa, cho'loq az-Zamaxshariy bo'lmaganida arablar o'z tillarini bilmas edilar", – deb lo'nda qilib allomaga bergan yuksak bahosiga hech bir izohning hojati bo'lmasa kerak [2, B.151].

Zamaxshariy ko'p asarlarini Makkadaligida yaratadi. O'z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy 5 yilcha yashaydi. Shu boisdan unga "Jorulloh" ("Olohning qo'shnisi") degan sharaflı nomga sazovor bo'ladi. Olimning shogirdlari ko'p edi. Undan to'g'ridan- to'g'ri saboq olgan shogirdlari ona yurti Zamaxsharda, Xorazmda, Tabaristonda, Abivardda, Samarqandda, Bag'dodda, Damashqda, Halabda ko'plab edi.

Olim ilm yo'lida muttasıl harakatdan to'xtamadi. Olim bu haqda: "Mening sochlarimni oqartirgan narsa bu muttasıl kitob mutolaa qilish va tinimsiz sayohatlardir", – deb yozadi [2, B.150].

Mashhur sharqshunos olim, akademik I. Yu. Krachkovskiyning: – "Yog'och oyoqda yurganligiga qaramasdan, Mahmud az-Zamaxshariy hazratlari o'ta harakatchanligi bilan ajralib turgan", – deb yozishi ham ejiz emas. Az-Zamaxshariy o'z umrining aksar qismini xorijiy yurtlarda, musofirchilikda o'tkazgan bo'lsada, o'z ona qishlog'i Zamaxshar, ona vatani Xorazmni juda qattiq sevgan, haqiqiy vatanparvarlik hissiyotlarini namoyon qilgan holda yurtiga bag'ishlab madhiyalar yaratgan.

"Xorazm zaminida shunchalik ko'p ne'matu fazilatlar mavjudki, dunyoning boshqa biror mamlakatida ham bularga o'xshashlarini aslo ko'rmadim", – deya, kindik qoni to'kilgan yurti Xorazmni alohida iftixor va g'urur bilan ta'riflaydi. Shu bilan birga, alloma jami 5 yildan ortiq vaqt yashagan muqaddas shahar Makkani ham o'zining ikkinchi vatani o'rnida ko'radi. Chunki, Makka ahli, ayniqsa, uning amiri Abul-Husayn Ali ibn Iso ibn Hamza ibn Vahhos al-Husayniy az-Zamaxshariyni katta izzat-ikrom va alohida hurmat bilan kutib olib, olimning samarali ilmiy, ijodiy va mudarrislik faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Hattoki amirning buyrug'i bilan Ka'batullohning yaqinidagi Bob al-Ajyod mahallasida olim uchun maxsus bir uy ham qurib beriladi [2, B.151].

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanada so‘zlagan nutqi va keyinroq, xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasida qilgan ma‘ruzasida ham Makka amiri Ibn Vahhosning alloma az Zamaxshariy haqidagi:

“Dunyodagi barcha qishloqlar jam bo‘lib Xorazmning birgina Zamaxshar qishlog‘iga fido bo‘lsa, arziydi. Chunki, bu qishloq ming yillarda bir marta tug‘ilishi mumkin bo‘lgan az-Zamaxshariydek buyuk allomani dunyoga keltirgan”, – degan samimiy e‘tirofi va yuksak bahosini alohida ta’kidlab o‘tgan edi. 1995- yilda yurtimizda Mahmud az Zamaxshariy tavalludining 920 yilligi keng miqyosda nishonlanadi. Uning asarlari o‘zbek tilida nashr etiladi [2, B.152].

Allomaning asarlari, ma‘naviy va ilmiy merosi bugungi kunga qadar dinyo ilm-fani va ma‘naviyatiga o‘zing ijobiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – 368 b.
2. Jumayeva N. Sharq allomalari ilmiy merosi. – Buxoro: Durdona nashriyoti, 2022. – 228 b.
3. Рустамов А. Махмуд Замахшарий. – Тошкент: Фан, 1971. – 32 б.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Az-Zamaxshariy>.